

**O'ZBEKISTON NAQQOSHLIK SAN'ATINING RIVOJLANISH TARIXI VA
ISTIQBOLI**

Inobat Jumaboeva

Jizzax san'at maktabi o'qituvchisi

O'zbek xalqining ko'p asrlik tarixida xalq amaliy san'ati madaniy merosimizning asosiy qismini tashkil qilib kelgan. Inson qo'l mehnati mahsulining san'at darajasiga ko'tarilib, hozirgacha o'z qiymatini yo'qotmagan o'zbek xalq amaliy san'ati turlari go'zalligi va betakrorligi bilan jahonga mashhurdir. Bu taraqqiyot bosqichi haqida fikr yuritar ekanmiz o'zbek amaliy san'atining kelib chiqishi insoniyatning ibtidoiy jamoa davri hayotiga borib taqalishining guvohi bo'lamiz.

O'zbekiston hududida olib borilgan arxeologik qazishlar natijasida topilgan yodgorliklardan olingen ma'lumotlarga ko'ra insonning jismga badiiy ishlov berish usulida buyum yaratish faoliyati tosh asridayoq boshlanib ,asrlar osha hozirgacha davom etib kelmoqda. Ibtidoiy jamoa tuzumidan bizgacha yetib kelgan ashayoviy dalillarni mehnat va ov qurollari, uy – anjom va bezakli buyumlar, odamlar yashagan manzil qoldiqlarida ko'ramiz.

Qazishlar natijasida tuproq ostidan chiqqan topilmalar xususan odam va hayvonlar jasadining qoldiqlari, g'or va yerto'la devorlariga chizilgan sur'at va bo'rtma tasvirlar ibtidoiy jamoa davri tarixini o'rganishning muhim manbai hisoblanadi.

Paleolit davrida amaliy – dekorativ san'at namunalari ham keng tarqala boshladi. Buyumlarni naqsh bilan bezashga, turli taqinchoqlarga tumorlarga ehtiyoj paydo bo'lganligi arxeologlar tomonidan topilgan ashayoviy buyumlarda namoyon bo'lmoqda. Qadimdan uy-ro'zg'or buyumlariga bo'yoqlar bilan ajoyib naqshlar ishlanib kelingan. Hozirda bu naqqoshlik san'ati deb yuritiladi.

Naqqoshlik amaliy san'atning mustaqil bir turi sifatida qadimdan turli ko'rinishlarda rivojlanib kelgan, unda o'zbek ustalari faqat uyro'zg'or buyumlarini emas, balki uy-joy va jamoat binolarining ichki qismi devor va shiplarini ham bezaganlar. San'atning bu turida xalq ichidan chiqqan usta hunarmandlar o'ziga xos uslublarda ijod qilishgan. Buni boshqa millat vakillarining ijodida ham ko'rishimiz mumkin. Rus amaliy san'atida ustalar tekis yog'och yuziga o'simliksimon naqsh rasmini tushirib unga maxsus bo'yoqlar bilan ishlov berishadi.

Bo'yoqlarning uzoq muddat saqlanishi uchun qurigandan so'ng ustidan bir necha qatlamda tiniq lak surtiladi. O'zbek ustalarining ish uslubi esa bunga qaraganda boshqacha bo'lib ular eskiz bo'yicha duradgor ishlagan yog'och buyum yuzasiga yelim surtadilar, uning ubsti jilvir qog'oz bilan tekislangandan so'ng, materiallarga bronza beriladi.

Keyin bronza ustidan ulgi asosida kompozitsiya tushiriladi, uning ustiga qora bo'yoq surtib, so'ngra naqsh ishlanadi. Xuddi shunday naqshlarni yanada chiroyli

ko’rinishi va uzoq muddatga saqlanishi uchun naqsh ustidan bir necha bor toza laksurtiladi.

Xalq ustalari asarlarini kuzatar ekanmiz naqsh kompozitsiyalarda naqsh elementlarining egri chiziqli o’simliksimon islimi, hamda geometrik shakllardan hosil bo’lgan naqsh - girihi va gulli girihi tuzish bilan bezatilganligini ko’ramiz.

Gulli girihi esa ikkala tur elementlarning ishtirokidagi bir butun kompozitsiyani tashkil qiladi. Islimi turdag'i asosiy elementlar – novda, yaproq, gul, g'uncha kurtak, qalampir, meva, poya kabilar hisoblanadi. Poya va novda turli naqshlarning eng ko’p uchraydigan elementlaridan biri bo’lib, ular naqsh kompozitsiyalarining hoshiyalarida qo’llaniladi. Girihi esa to’rsimon va yulduzsimon bo’lib, yulduz nurlarining soni 5 tadan 16 tagacha bo’lgan burchakliklardan iboratdir.

Naqshning uchinchi turi hisoblangan gulli girihi naqshida esa naqsh geometrik va o’simlik elementlarining bir-biriga qo’shib ishlatalishi natijasida hosil bo’ladi. Bunda geometrik element doimo naqsh markazida joylashadi va tayanch ko’rinishga ega bo’ladi.

Naqqoshlik san’ati mana shunday jozibali ko’rinishlari bilan xalq amaliy bezak san’atining asosini tashkil qilib, uning eng nafis turlaridan biri hisoblanadi. Xalq amaliy san’atining boshqa turlarini naqsh elementlarining ishtirokisiz tasavvur etish qiyin. Naqshning lug’aviy ma’nosи – gul va bezak degan ma’noni anglatadi. Ular kompozitsyon qo’llanishi bilan amaliy san’at asarlariga jilo bag’ishlaydi.

Bezaklarda qo’llanilayotgan barcha elementlar esa, tabiatda uchraydigan o’simlik dunyosi, hayvonlar tasviri va koinot jismlarining eng sodda ko’rinishlarini badiiylashtirish orqali aks ettiriladi.

Naqqoshlik san’ati qadimdan insonlar turmushida ishlataladigan buyumlarni bezatish orqali moddiy muhitini go’zallashtirishga, estetik boyitishga xizmat qilib kelgan. Xalq ustalari tomonidan jilolangan me’moriy obidalar, turar joy va ro’zg’or buyumlari go’zallikni idrok etishda bebaho hisoblanadi.

Bu borada ota-bobolarimizning bizga qoldirgan ma’naviy merosi cheksiz. San’at asarlari inson hayotida muhim ahamiyatga ega. Xalq amaliy san’ati asarlari nafaqat bezakdorligi, chiroyli shakllari, hamda chuqur falsafiy, tarbiyaviy, ruhiy xususiyatlari bilan o’zining yuksak qiymatiga ega. Farzandlariga yoshlik chog’laridanoq hunar o’rgatib kelgan xalqimiz o’zining an’analaridan, urf-odatlaridan, turli ma’naviy meroslardan unumli foydalanib keldi. Bugungi kunda ham xalqimizning milliy an’analariga asoslanib, ustoz shogird maktabi qoidalari bilan yoshlarimizga hunar o’rgatishga katta e’tibor berilmoqda.

Ongli faoliyatining ajralmas qismi bo’lmish badiy tafakkur va shunga muvofiq badiiy-ijodiy faoliyat insoniyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida juda katta ahamiyatga ega bo’ldi. Bunday faoliyat natijasida kelib chiqadigan estetik-badiiy idrok qobiliyati kishilarda olamni, undagi mavjudodlar, narsalar va voqeа-hodisalarni, atrof-muhitdagi shakllar va ranglarni turfa shakl-shamoilda qaytadan aks ettirishga havas

uyg'otadi. Shakl va ranglarning real va stillashtirilgan tasvirlarni yaratish shu tariqa kelib chiqdi va u o'z navbatida, odamlarning kundalik turmushlaridan o'rin ola boshladi.

Natijada badiiy bezaklarning xilma-xil shakllari va turlari paydo bo'ldi va takomillashib bordi. Shuning uchun ham O'rta Osiyo xalqlarining bizgacha yetib kelgan san'at asarlari orasida naqshlar asosida yaratilgan badiiy asarlar alohida ahamiyatga ega. Bu san'atning rivojlanib yangicha shakl va uslublar bilan boyitilib borilishi natijasida turli hududiy maktablarning yuzaga kelishiga asos bo'ldi.

Naqqoshlik san'ati xalq amaliy bezak san'atining mukammal va mustaqil turlaridan biri bo'lib barcha amaliy san'at turlarining tarkibiy qismi hisoblanadi. O'rta Osiyo xalqlarining milliy hunarmandchiligi va bezak san'ati orasida naqqoshlik o'zining nafis shakllari, rangin tovlanishi hamda ramziy ma'nolarga boyligi bilan qadimdan keng rivojlanib kelmoqda.

Ma'lumki vatanimizning ko'rkiga ko'rк qo'shib turgan Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xorazm kabi markaziy shaharlardagi ko'hna obidalar bezak san'ati turlari ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, sangtaroshlik, naqqoshlik, koshinkorlik namunalari bilan o'ziga xos ravishda bezatilgan.

Ulardagi betakror naqsh bezaklarini kuzatar ekanmiz, ijodkor bo'yoqlar orqali shakllarni qanchalar nafis ifodalay olganidan hayratga tushamiz. Shuningdek, tarixiy Baktriy, Sug'd, Xorazm, Shosh kabi hududlardan topilgan bezakli ashyolarning o'ta qadimiyligi ham, insoniyatning go'zallik olamiga qanchalar intilib yashaganligidan dalolat beradi.

Tarixdan har bir davr naqqoshlik san'atining rivojiga o'zining salmoqli hissasini qo'shib, uning yanada rivojlanib, taraqqiy etishiga zamin yaratib kelgan. Qadimiy manbalar Surxondaryodagi Fayoz – tepe (I-II asr). Dalvarzin-tepa (II-asr). Xorazmdagi tuproq – qal'a (III-asr) devorlari ham turli rasm va naqshlar bilan bezatilganligi bizga ma'lum. VI – VIII asrlarga oid Afrosiyob va Varaxsha saroylarining devoriy suratlar qoldiqlari esa birmuncha yaxshi saqlanib qolgan. Ajdodlarimiz bu kabi devoriy rasmlarda: insoniylik, baxt, ona tabiatga cheksiz muhabbat, shodlik, mehr va yovuzlik kabi sifatlarni rang va chiziqlar orqali ifodalashgan.

Asrning boshlarida O'rta Osiyoga islom madaniyatining kirib kelishi, badiiy bezak – naqqoshlik san'atining yanada rivojlanishiga sabab bo'ldi. Mahobatli rasmlardagi jonli mavjudotlar o'rnini tabiat tasvirlari, o'simliksimon va geometrik elementlar ishtirokidagi naqsh namunalari egalladi. Arab yozuvlari o'zlashtirilib, bezakli (epigrafika) uslub paydo bo'ldi.

Asrlarda ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, naqqoshlik, g'isht terish, kitob bezagi san'atlari yanada rivojlandi. Buyuk allomalar, Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy va boshqalarning ilmiy, tibbiy, ma'naviy hamda qur'on oyatlari zarhal naqshlar bilan bezatildi. Naqqoshlikda turli shakllar, gul elementlari va rang tuslarining ramziy falsafiy ma'nolari kengroq ifodalana boshlandi:

Kvadrat – abadiylik, mustahkamlik, *quyosh* – hayot ramzi, zirk guli (gulsafsar) osoyishtalik va uzoq umr, *olma* – muhabbat ramzi, *sher* – mardlik, adolat va kuchlilik ramzi, *xumo* – baxt keltiruvchi qush, *yashil rang* – ona zamin, *havo rang* – musaffo osmon degan ramziy ma‘nolar kelib chiqadi.

Tarixiy ma‘lumotlarga ko’ra Temur va temuriylar davrida ilmu-fan, madaniyat va san‘at rivojlanishi bilan mamlakat hayotida tub burilish yasadi. Sohibqiron va temuriyzodalar tashabbusi bilan bir qancha tarixiy inshoatlar qurildi. Binolarning ichki hamda tashqi qismlari amaliy bezak san‘atining naqqoshlik, ganchkorlik, koshinpazlik, serhasham unvonli yozuvlar va turli o’yma naqshlar bilan bezatildi.

Bundan tashqari nusxa ko’chirish (xattotlik) kitobat (minatyura) san‘atlari yanada rivoj topdi. Bu sohada Mirak Naqqosh, Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhib kabi ko’plab naqqosh – musavvirlarning ijodi namunalidir. Usta musavvirlar mohirlik bilan mutafakkirlar Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Amir Xusrav Dehlaviy, Nizomiy Ganjaviy va ko’plab shoirlarning asarlarini ajoyib tasvir va naqshlar bilan bezaganlar.

Naqqoshlikda lojuvard, yashil, qizil, tilla hal bo’yoq tuslarini o’zaro bog’lanishi asosidagi —turunj|| namoyon, girih usullaridan tashkil topgan naqsh namunalari ko’plab ishlangan.

Naqqoshlik san‘atining hayotga keng qamrovli kirib kelishi bilan o’ziga xos uslublar bilan naqsh maktablari shakllana boshlandi. Ushbu maktablarda ko’plab xalq ustalari yetishib chiqdi va bu sohada unumli faoliyat ko’rsatdilar. XX asr boshlarida ijod qilgan o’zbek naqqosh ustalar Olimjon Qosimjonov, usta Sherali Hoji, Rauf Nazarov, Ustazoda Yoqubjon Raupov, Vakil va Sobir Isaevlarni misol qilib aytishimiz mumkin. Ular Toshkentdagি Romanovlar saroyini, hozirgi xalq amaliy san‘ati muzeyi binosini (sobiq Polovtsev uyini) va boshqa binolarni sharqona naqsh namunalari bilan bezatishda jonbozlik qilgan. 1947 yilda qurib bitkazilgan O’zbekiston Davlat opera va balet katta teatri binosining bezak ishlarida usta Vakil va Sobir Isaevlar, Yoqubjon Raupov, Olimjon Qosimjonov, Jalil Hakimovlarning san‘ati tahsinga sazovordir. Teatr binosini 1966 yilda qayta ta‘mirlash ishlarida ham mohir usta Jalil Hakimovning xizmatlari katta bo’ldi.

Odatda yangi naqsh kompozitsiyalarini yaratish tajribali naqqosh ustalar zimmasida bo’lgan. Chunki ular xalq amaliy san‘atining har bir turiga mos mukammal kompozitsiyalar tuzish tajribasiga ega bo’lgan naqshlarni chizish, o’yish, tikish malakasini egallagan, naqshlarni ishlash usullari va pardoz berish qoidalarini chuqr bilganlar.

O’z faoliyati davrida naqqosh ustalar xalq amaliy bezak san‘atining bir necha turlarini ham egallab borganlar.

Bunga misol Toshkentlik pargori usta Olimjon Qosimjonov, naqqosh Jalil Hakimovlar yog’och o’ymakorligini mukammal bilgan, Xivalik Abdulla Boltaev naqqoshlik, koshinpazlik, misgarlik kabi hunar turlarida ham erkin ijod qila olganlar.

Handasaviy naqsh kompozitsiyalari, giriqlarni tuzuvchi ustalarni naqqoshlikda giriikkor, katta usta deb atashgan. Geometrik naqqoshlarni gumbaz mehrob va turli assimetrik shakllarda qo'llab ishlash ancha murakkab ish sanaladi.

O'zbekistonda ham boshqa amaliy san'at turlari kabi naqqoshlik san'atining ham o'ziga xos bir necha maktablari mavjud bo'lib, ular XX asrning o'rtalarida qayta shakllanib yanada rivojlandi.

Toshkent naqqoshlik maktabi.

Bu maktab o'ziga xos uslubiga ega bo'lib, ustalar tomonidan ishlangan naqshlar rang tuslarining nozikligi, yashil havo rang hamda oltinsimon jigarrang koloritlarda ishlanishi bilan ajralib turadi. Shuningdek, naqsh elementlarining xilma-xilligi pardoz usullarining ko'proq targ'il tortish texnikasi bilan bajarilishi o'ziga xosdir.

Toshkent naqqoshlik maktabining namoyondalari Qosimjanov Olimjon (1878 y.), Azimov Akbar (1886 y.), Raupov Yoqub (1888 y.), Qosimov Maqsud (1905 y.), To'xtaxo'jayev Tohir (1918 y.), Hakimov Jalil (1920 y.), To'rayev Maxmud (1930 y.), Nuraliyev Haydarali (1944 y.), Shukurov Sobirjon (1947 y.), Rahmonberdiyev Baxtiyor (1948 y.), Azimov Barot (1950 y.), Husanov Tohir (1953 y.), Qosimov Yo'l-dosh (1956 y.), Avliyoqulov Muzaffar (1962 y.), Qosimov Sobirjon (1964 y.), To'rayev Shukrullo (1967 y.), Rustamov Adibbek (1970 y.), Goyipov Alisher (1970 y.), Tojiyev Ubaydullo (1971 y.), Orifjonov Ulug'bek (1971 y.), Stalyarov Vladimor (1971 y.), To'laganov Muzaffar (1972 y.), Shoaxmedov Shokarim (1972 y.), Hoshimov Javlon (1973 y.), Ubaydullayev Aziz (1976 y.), ustalar yaratgan naqqoshlik san'ati asarlari bugungi kunda ham o'z tarovatini yo'qotmagan. Ular yaratgan naqshu nigorlar Milliy me'morchiligidan keng qo'llanilgan misol uchun: Shayx Zayniddin buva maqbarasi. (XIII, XIX asr), Shayx Xovandi Taxur maqbarasi. (XIV - XV asrlar.), Yunusxon maqbarasi. (XVI asr.), Muhammad Qaffol Shoshiy maqbarasi. (XVI asr.), Baroqxon madrasasi. (XVI asr.), Ko'kaldosh madrasasi (XVI asr.), Xo'ja Alambardor maqbarasi (XIX asr.), Tillo Shayx masjidi (XIX asr.), O'zbekiston musulmonlari idorasi kutubxonasi (XX asr.), Xo'ja Ahror Valiy masjidi (XV asr.)

Farg'ona naqqoshlik maktabining uslubi ko'p jihatdan tojik naqqoshlik namunalariga o'xshab ketadi. Naqsh kompozitsiyalarida ortiqcha shakl yosovchilarisiz, zamin bo'shlqlari islimiyligul va novda shakllari bilan mohirona to'ldiriladi.

Farg'ona makatabiga xos har bir naqsh kompozitsiya to'qroq, yonma yon ranglarni qarama-qarshi (kontrast) qo'yilishi naqshga ulug'vorlik bag'ishlaydi. Naqshdagagi gul va barg elementlariga ko'proq yedirma uslubida pardoz beriladi. Farg'ona naqqoshlik maktabi faoliyatida Qo'qonlik naqqosh ustalarining aytarli o'z o'rni bor. Ular Norqo'zi Nurmatov, hamda ularning shogirdlari bu maktabda samarali ijod qilishgan. Najmiddinov Haydar (1850 y. Farg'ona sh.), Norqo'ziyev Saidmahmud (1883 y. Qo'qon sh.), O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Saidahmad Mahmudov (1909 y.), Alinazar Qori (Qo'qon sh.) Husayinov Madaminxon (1928 y. Namangan sh.) kabi ustalar Farg'ona Naqqoshlik maktabi namoyondalari hisoblanadi.

Ahmad al-Farg'oniy majmuasi (1998 y.), Burxoniddin Marg'inoniy maqbarasi , Xo'ja Amin maqbarasi , Mullo Bozor Oxund maqbarasi kabi qadomjolarni qayta qurish ta'mirlash ishlarida Farg'ona naqqoshlik maktabining qo'li gul ustalari faol qatnashdilar.

Xorazm naqqoshlik maktabi.

Xorazmlik ustalar ham o'ziga xos uslublarda ijod qilishgan. Xorazm ustalari yaratgan naqsh kompozitsiyalar ko'proq novda ishtirokidagi aylana spiralsimon murakkab ko'rinishdagi naqshlardan iborat. Xorazm naqshlarini turlanishida uch va to'rt xil rang tuslari ishtirok etib, naqsh zaminlari havorang-yashil novdalar oq rangda pardozi esa qora rangda bo'ladi.

Xorazm naqshlarida islamiy egiluvchan madohil shakllari ko'plab uchraydi. Xorazm naqqoshlik maktabi namoyondalari Vafoyi (XVII), Abdullayev Bobojon (1880), Abdullayev Bog'ibek (XIX), Boltayev Abdulla (1896), Masharipov Ro'zimat (1895), Muhammad usuf Misriy (XIX), Ro'zmat Masharipov (1884), Abdurazzoq o'g'li (1880), Said Nazar devonbegi Bolta Niyoz o'g'li (XIX), Boltayev Qalandar (XXasr b.), Sayidniyozov Xo'janiyoz (XX asr), Eshmurod Sofoev, aka-uka Vafo va Bolta Mirzaevlar, kabi ustalar milliy san'atimizning rivojiga samarali hissa qo'shishgan. Xiva naqqoshlik maktabi boshqa naqqoshlik maktablaridan tubdan farq qiladi. Naqsh kompozitsiyalarining tuzilishi, asosan novda spiralsimon aylanib – aylanib murakkab naqshlar hosil qiladi. Islimiy naqsh kompozitsiyasida novda, marg'ula, tugma, qo'chqor shoxi, oddiy oygul, panja kabi naqsh unsurlaridan tashkil topadi.

Bu islamiy naqshlar boshqa shaharlardagi naqqoshlik maktablaridan asosan naqshlarining dinamikaviyligi bilan farq qiladi. Ko'pincha yulduz hosil qiluvchi girihi lar ishlatalib, orasiga spiralsimon islamiy naqsh ishlataladi. Xiva naqshlari umuman madohili naqshlari asosida tuziladi. Keyin esa islamiy naqsh spiralsimon mayda qilib ishlanadi. Xiva naqshlarining rang jihatiga kelsak, naqshlarning umumiyligi rangi ko'pincha havo rang kaloritda ishlanadi. Ranglar kam ishlatsada, o'ziga xos ko'raklikka ega. Xiva naqshida asosan zangori va yashil ranglar juda ko'p ishlataladi. Xiva naqqoshlari o'z naqshlari o'z naqsh kompozitsiyalarida butun yuzani geometrik naqshlar bilan to'ldirib moviy va yashil bo'yoq berishni yaxshi ko'rganlar.

Pahlavon Mahmud maqbarasi (1247, — 1326, Xiva), Muhammad Rahimxon madrasasi -(1871), Islomxo'ja madrasasi (1909-1910 y), Juma masjidi, me'moriy yodgorlik (X—XVIII -asrlar), Tosh-Hovli saroyi (1830-1838), Nurullahboy saroyi (XX asr) kabi bir qator tarixiy me'moriy yodgorliklar milliy bezak san'atimiz namunalari bilan o'ziga xos uslublarda bezatilgan.




3-rasm

Buxoro naqqoshlik maktabi.

Buxoro amaliy bezak san‘atiga mansub bo’lgan naqqoshlik san‘ati ish uslublari ham naqsh kompozitsiyalarining mukammal va jozibadorligi, girih va o’simliksimon, gulli girih naqsh namunalarining yorqin ranglarda ishlanishi bilan o’ziga xos mazmun va xarakterga egadir.

Buxoro naqshlarida ko’proq namoyon naqsh kompozitsiyalari shuningdek kosamon, kitoba mehrob shakli naqshlariga xos namunalar ko’plab ishlanadi. Bu yerda qad ko’targan me’moriy yodgorliklarning aksariyati Buxorocha uslubda naqshlangan. Buxoro me’morchiligidagi ham naqqoshlik asosan shiftlarni, saroy ustunlarini, madrasa va masjidlarning ichki qismi, yog’ochdan yasalgan buyumlarni bezashda qo’llangan. Naqshlar nozik islamiy o’simliksimon va geometrik ko’rinishdagi naqshlarda ifoda etilgan gullarning ritmik harakati orqali tuzilgan naqsh kompozitsiyalardan tashkil topgan. Bu milliy me’morchiligidagi bezaklarda Mahmud Muzahhib (XV-XVI 60-yillari), Usta Nabi Hafizov (1893), Salimov Majid (1950), Hamroyev Muhammadali, Husanov Saidjon, Husanov Salim kabi Buxorolik ustalarning mohirona sana’ti mujassam. Ark (XI - XX a.), Bolohovuz ansamqli (XVIII-asr boshlari - XX a.), Bola Hovuz masjidi (1712y.), Ismoil Somoni maqbarasi (IX-X a.), Chashmai Ayub maqbarasi (1380 yoki 1384/85yy.), Abdullahxon madrasasi (1596/98yy.), Modarixon madrasasi (1556/57 yy.), Baland masjidi (XVI a. boshlari), Govkushon majmuasi - Masjid, Minora, Madrasa (XVI a.), Xo‘ja Zaynuddin majmuasi (1555 y.), Poi Kalon ansamqli (XII—XIV a.), Labihovuz ansamqli (XVI-XVII a.), Ko’kaldosh madrasasi (1568/69 yy.), Nodir Devonbegi madrasasi (1622— 23 yy.), Nodir Devonbegi xonaqohi (1620), Ulug’bek madrasasi (1417y.), Abdulazizzon madrasasi (1652), Sayfiddin Boharziy maqbarasi (XIII a. ikkinchi yarmi—XIV a.), Bayonqulixon maqbarasi (XIV a. ikkinchi yarmi, XV yoki XVI a.), Namozgoh masjidi (XII-XVI a.), Fayzobod xonaqohi (1598/99 yy.), Chor Minor (1807 y.), Sitorai Mohi Xosa Buxoro Amiri saroyi (XIX a. oxiri XX a. boshlari), Chor Bakr me’moriy majmuasi (1560/63yy.)



4- rasm

Samarqand naqqoshlik maktabi.

Samarqand dunyo taraqqiyotining eng qadimgi va markaziy shaharlaridan biri bo'lib, jahon madaniyati va fani xazinasiga katta hissa qo'shgan shahardir. Mustaqillik yillarda Samarqand shahri yanada ko'rkmashdi. Bunda O'zbekiston Respublikasi prezidenti va hukumat rahbarligi Samarqand shahridagi yodgorliklarini tiklash va ta'mirlash, ayniqsa, eski shahar qismini qayta qurish va ta'mirlash, obodonlashtirish bo'yicha keng ko'lmandagi bunyodkorlik ishlarini amalga oshirdilar. Temuriylar sulolasi yaratgan arxitektura yodgorliklari Misr, Xitoy, Hindiston, Gretsya, Italiya kabi davlatlarda yaratilgan arxitektura obidalaridan aslo qolishmaydi.

Qo'li gul ustalarimiz tomonidan mustaqillik yillarda qayta barpo etilgan al Buxoriy, Motrudiy qadamjolari kabi boshqa tarixiy majmualar tahsinga sazovordir. Samarqand naqshlari ko'p jihatlari bilan Toshkent, Farg'ona naqshlariga o'xshab ketadi. Samarqand naqshlarida zangoriyashil rang tuslari ko'plab qo'llaniladigan naqsh kompozitsiyalaridan o'simliksimon murakkab giriҳ turlari alohida joziba kashf etadi.

Samarqand naqsh turlarida yedirma-pardoz usullari keng qo'llaniladi. Bu naqqoshlik maktabi nomoyondalari usta Rahmon, usta Jamoliddin, usta Sharif, usta Aminjon, usta Mahmud Muhammad Avaz Samarqandiy XVII asr, Usta Abduzohid (1852-1917), Latipov Abdug'ani (1971) o'z naqsh kompozitsiyalari bilan xalq hurmatiga sazovor bo'lishdilar. Amir Temur maqbarasi (1403y.) Maqbara devorlari havorang, zangori va oq sirli koshinlar, geometrik shakldagi naqshlar bilan bezalgan. Maqbara qurilishi Amir temurning nabirasi Mirzo Ulug'bek davrida ham davom ettirilgan. Uning davrida qabrlarning turgan joyi o'ymakor marmar panjara bilan o'raglan. Uning buyrug'i bilan 1424 – yili maqbaraning sharq tomonida to'rt qubbali galeriya qurildi.

Ushbu galeriyadan maqbaraga kirish mumkin. Maqbara inter'yerining sosi havorang, devorlariga esa naqshlar berilgan. Maqbaraning tashqi gumbazi qovurg'ali

baland doira asos poyasiga o’rnatilgan. Ulug’bek madrasasi (1417-1420 y.), Ulug’bek rasadxonasi (1424 – 1428 y.) Sherdor madrasasi (1619-1635y.), Tillakori madrasasasi (1646-1660 y.), Ko’k gumbaz madrasasi taxminan (*XVI asr o’talarida*), Qozizoda Rumiy maqbarasi (1437 y.) Shohi Zinda ansamblı (*XI asr.*) Bezakdor koshinlar maqbaraning pastki qismidan to gumbazning ustigacha ishlangan. Maqbaralardagi naqshlar o’simliklar shoxlariga o’xshash turli tasvirlarni eslatdi. —Devoniyl yozuvi, ba’zan esa —ko’fiy shaklidagi yozuvlar naqshlar tasviriga uyg’unlashib ketadi. Shirinbeka oqa va Tuman oqa maqbaralarining gumbazdagи tuynuklaridan yorug’lik tushib turadi. Bezaklari birmuncha ochiq rangda bo’lib, Maqbaralar devorlaridagi rasmlar naqsh shaklida tushurilgan. Tuman og’a masjidi koshinkor qilib ishlangan. Bibixonim Jome‘ Masjidi (1404 y) devorlaridagi bezaklar ham rangli koshinlar bilan naqshlangan.

Xulosa qilib aytganda xalq hunarmandchiligi, xalq amaliy bezak san’atining kelib chiqishi va uning rivojlanish tariixni o’rganish, va ularni zamon bilan hamnafas miliyligini asrab qolish hamda davom ettirish bugungi kun ijodkorlarining asosiy vazifalaridan biridir. Hukumatimiz tomonidan bu borada ko’plab qarorlarni qabul qilinishi, tashabbuslarni ilgari surilishi yosh avlod istiqboli uchun keng imkoniyatlar eshagini olib bermoqda.

San’at sohasiga mo’ljallangan o’quv mussasalarining barpo qilinishi bu yo’nalishdagi o’quv kurslarini ochilishi bunga misol bo’ladi.

Bu san’at ayniqsa mustaqillik yillarida yanada yangicha uslublar bilan rivojlandi. Ayniqsa ko’plab barpo etilgan milliy me’morchiligidan xos bino va inshoatlarning ichki va tashqi bezaklarida keng ishlatilmoqda. Bunda ustoz shogird an’analariga asoslangan ish uslublarida ishlangan naqsh kompozitsiyalar qo’llaniladi.

Maktab dars mashg’ulotlarining rejasiga xalq amaliy san’ati turlari haqida ham tushunchalarni kiritilishi yosh avlodning amaliy san’atga bo’lagan qiziqishlarini uyg’otishda muhim o’rinda turadi.

Naqqoshlik san’at sohasiga doir to’garak mashg’ulotlarini tashkil qilishning afzalligi shundaki, talabalarda mustaqil kompozitsiyalar tuzishni o’rganishlarida asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Iqtidorlarni yuzaga chiqarish uchun tasviriy va amaliy san’atga doir turli mavzulardagi tanlovlarning joriy qilinishi shular jumlasidandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bulatov S.S. O’zbek xalq amaliy bezak san’ati, - T.: —Mehnat, 1991.
2. Bulatov S.S. Rangshunoslik T.: Faylasuflar jamiyati 2009.
3. Bulatov S.S. Ashurova M.O. Amaliy san’atdan qisqacha izohli lug’at.
4. Azimov I. O’zbekiston naqshu nigorlari. – T.: G’.Gulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1987.

6 – TOM 3 – SON / 2023 - YIL / 15 - MART

5. Axloq va odobga oid hadis namunalari. – T.: —Fan, 1991.
6. Bulatov S.S. Ganchkorlik, naqqoshlik va yog'och o'ymakorligiga oid adabiyotlarning izohli lug'ati. – T.: —Mehnat, 1991.
7. Bulatov S.S. Dadashev L. Naqsh alifbosi. – T.: —Cho'lpon, 1999.